

## O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MEKANIZMLARI

Iskandarov Bekzodjon Maxmudovich

Fuqarolik ishlari bo'yicha Ishtixon tumanlararo sudining sudyasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15085191>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada korrupsiya haqida tushuncha va uning oqibatida yuzaga keladigan muammolar keng yoritib berilgan. Shuningdek, maqola davomida korrupsiyaning oldini olish uchun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning samarasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola so'ngida xulosa berilgan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaning oldini olish, amalga oshirilayotgan islohotlar, qonun ustuvorligi, adolat normalari.

## MECHANISMS FOR COMBATING CORRUPTION IN UZBEKISTAN

**Abstract.** This article provides a broad overview of the concept of corruption and the problems that arise as a result of it. The article also discusses the reforms being implemented in Uzbekistan to prevent corruption and their effectiveness. The article concludes with a conclusion.

**Keywords:** corruption, prevention of corruption, ongoing reforms, rule of law, norms of justice.

## МЕХАНИЗМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В данной статье дается широкий обзор понятия коррупции и проблем, которые она вызывает. В статье также подробно рассматриваются реформы, реализуемые в Узбекистане по предотвращению коррупции, и их эффективность. Статья завершается выводом.

**Ключевые слова:** коррупция, профилактика коррупции, проводимые реформы, верховенство права, нормы правосудия.

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi".

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;

2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida" gi Konvensiyasi;

1999-yil 4-noyabrdagi "Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida" gi Konvensiyalari va boshqalar. O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

2020–2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") ni bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020-yil 4-fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

- Ombudsmanning "10-96" ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;
- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo'yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.
- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo'l-yo'riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'plab davlatlarda, xususan Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda "Davlat xizmati

to'g'risida"gi, "Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me'yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

E'tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo'lgan sovg'a yoki hadyalarining aniq miqdori ham belgilab qo'yilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar qabul qilishi qat'iyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi to'lovlarni olishi ta'qiqlangan

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg'alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg'alar, vazirlikka o'tkaziladigan tartib joriy qilindi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qo'llanilmoqda

Ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to'qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e'lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e'tirof etilgan.

Bu borada Daniya tajribasiga ko'ra, 2002-yilda qabul qilingan "Korrupsiya to'g'risida" gi Daniya Qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta'sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo'lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta'lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korrupsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, Finlyandiya Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg'alarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korrupsiyani oldini olish maqsadida yilda ikki marotaba markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdagi jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatmoqda:

birinchidan, "Davlat xizmati to'g'risida" gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, hali hamon mazkur Qonun qabul qilinganicha yo'q. Shu sababdan "Davlat xizmati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda davlat xizmatchilarining o'z faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim bo'lgan hamda korrupsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan me'yorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir;

ikkinchidan, xalqaro va ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implemenetatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkidagi o'zgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkoniniyatini beradi, deklaratsiyalarning ommaviyligi, ya'ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yana-da oshirishi shubhasizdir. «O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarni takomillashtirish» mavzusida turkum tadbirlar o'tkazilmoqda

## REFERENCES

1. Xabibullaev D.Y. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). O'quv qo'llanma. To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. –Toshkent, TDYU nashriyoti, 2018. -300 b.
2. Давид Р. Основные правовые системы современности. – М.: Международные отношения, 1986. – 380 с.

3. Ермолович В. И., Шелкопляс В. А. Правовые системы: история и современность: Материали межвузовской научно–практической конференции. – Минск, 5–6 января 2001 г. – Мн.: БГЕУ, 2001. – 176 с.
4. Инако С. Современное право Японии / Отв. ред. В. А. Туманов. – М.: Прогресс, 1981. – 291 с.